



## OZ KOMPLEKTLI MAKTABLARDA MATEMATIKA O'QITISHDA ZAMONAVIY USULLARDAN FOYDALANISH

Sultonova Madina Shavkat qizi

Guliston davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim  
yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15803327>

### ARTICLE INFO

Received: 24<sup>th</sup> June 2025  
Accepted: 25<sup>th</sup> June 2025  
Published: 30<sup>TH</sup> June 2025

### KEYWORDS

*Oz komplekt, stansiyalar  
metodi, tangram, komplekt,  
metod, vizual, kommunikativ,  
quiz, animatsiya, figura, domino*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada oz komplektli maktablarda matematika fanini o'qitishning zamonaviy usullarini o'rganish, afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash ko'zda tutilgan.*

Ta'lim olish har qanday sharoitdan qat'i nazar muhim ahamiyatga ega. Xususan Respublikamizning qishloq joylarida kichik va uzoq aholi yashaydigan punktlar mavjuddir. Bu hududlarda bir sinfga belgilangan normadan anchagina kam bo'lgan 7 yoshli bolalar bo'lganda oz komplektli maktablar ochiladi. Bu shunday maktabki, unda bir o'qituvchi bir vaqtda bir necha sinfga dars o'tishi talab etiladi. Bu sinflarda 3 tadan 30 tagacha o'quvchi bo'lishi mumkin. Bir o'qituvchi hamma (I-IV) sinflar bilan bir vaqtda ishlaydigan maktab bir komplektli maktab deyiladi. Shuningdek, ikkita o'qituvchi, uchta (ba'zan to'rtta) sinf bilan ishlaydigan maktab ikki komplektli maktab deyiladi. Shunday qilib o'quvchilar har qanday sharoitda ham sifatli ta'lim olishga haqli hisoblanadi, ammo oz komplektli maktablarda ishlash o'qituvchi va o'quvchilar uchun bir qator qiyinchilik va to'siqlar ham keltirib chiqaradi:

1. O'qituvchi har kuni darsga tayyorlanishi va turli fanlardan eng kamida 8 soat dars o'tishi kerak. Oz komplektli maktablarda darslar bo'yicha reja tuzish oddiy maktabda bir sinf bilan ishlashdagiga qaraganda ko'p vaqt talab qilishi bilan ishlash darajasi qiyin. Har kuni 8 yoki 12 ta reja ustida ishlash qiyinligining bo'lmayot, balki bularni o'zaro koordinatsiyalash anchagina vaqt talab qiladi. Bular, ularga optimal pedagogika samaradorligini beradigan umumiy bir butun birlashtirish zarurligini talab qilmoqda. Bularning hammasi o'qituvchining bilimlarini, bilimdonligini, mas'uliyatini, yuqori darajada tashkilotchi, uyushqoq bo'lishini, matonat, qat'iyatlilikni talab qiladi.

2. O'quvchilarning bir necha sinfga diqqat e'tiborini taqsimlashijudaqiyin.

3. O'qituvchi bir sinf bilan darsning yarmi yoki 1/3 qismi davomida shug'ullanishga, darsning qolgan vaqtida o'quvchilar mustaqil ishlashiga to'g'ri keladi.

4. O'quvchilar mustaqil ish bajarayotganida darhol o'qituvchidan yordam olish niyatidan mahrumdurlar, chunki bu vaqtda o'qituvchi boshqa sinf bilan band bo'ladi.

5. Bir sinf dars o'tayotgan vaqtda o'qituvchi rahbarligida ishlayotgan boshqa sinf o'quvchilarining halaqit berishiga qaramay, mustaqil ishlayverishlari kerak.

Shunga qaramay oz komplektli maktab o'quvchilari uchun bir qator afzalliklari ham mavjud:

1. Sinf o'quvchilari sonining kamligi (ba'zan 2-3 ta o'quvchi). Bu o'qituvchiga tez-tez so'rab turish, o'quvchilar bilimlaridagi kamchiliklarni toppish va ularni tuzatish imkoniyatlarini beradi.

2. Oz komplektli maktablarda o'quvchida ftarlarini tekshirishga oz vaqt sarflaydi. U bu daftarlari orqali o'quvchi qanday va nimadan qiynalayotganini oson aniqlaydi.

3. Oz komplektli maktabla rmaktab xususiyatiga ko'ra o'quvchi darsning taxminan 1/3 qismida mustaqil ishlashga to'g'ri keladi. Buning o'quv maqsadlaridan tashqari, katta tarbiyaviy ahamiyati ham bor: iroda mustahkamlanadi, qiyinchiliklarni bartaraf qilish malakasi tarbiyalanadi.

4. Yuqori sinf o'quvchilari quyi sinf o'quvchilariga yordam berishlari mumkin, chunki ular har kuni bir sinfxonasida birga bo'lishadi.

Darslarni rejalashtirish ham oz komplektli maktablarda ish tashkil etishdagi asosiy muhim masalalardan biridir. Bu rejalashtirish esa dars ishlarini necha sinf bir vaqtda qatnashayotganiga qarab belgilanadi.

Ko'rsatmoqdaki, bunga binoan 1-yarim yillikda har kuni oldingi 1-2 dars faqat 1-sinf bilan o'tkaziladi. Bunga kundalik darslar sonini 6 taga yetkazish yo'li bilan erishib bo'ladi. Buning uchun darslar vaqtini 30 minutgacha qisqartirish kerak bo'ladi.

Masalan, bir komplektli maktablarda dushanba kuni uchun dars jadvali quyidagicha. Demak, 1-sinflar ikki darsni oldin o'qiydi va 1-darsni o'qituvchi o'tkazadi. O'qituvchi uchun eng ko'p 1-soatlar 3-chi va 4-chi soatlardir.

Darslarda o'qituvchiga ko'p mas'uliyat yuklanadi bir vaqtning o'zida bir nechta sinf bilan ishlash oson emas. Bunday vaziyatdan yuqori tajribaga ega, zamonaviy usullarni qo'llayoladigan o'qituvchilargina chiqib keta oladi. Aynan qanday zamonaviy usul va metodlar bizga yordam bera olishini bir necha metodlar orqali ko'rib chiqamiz. Masalan: "**Stansiyalar asosida aylanishli o'qitish metodi**".

Ushbu metod oz komplektli maktablarda bir nechta sinf birgalikda o'qiyotgan darslarda o'qituvchining vaqtini to'g'ri taqsimlashga yordam beradi. Unda o'quvchilar kichik guruhlariga yoki sinflar bo'yicha "stansiyalar"ga ajratiladi. Har bir stansiyada ular muayyan topshiriq yoki faoliyatni bajaradilar, so'ng belgilangan vaqto'tib, boshqa stansiyaga aylanishadi.

#### **Stansiyalar tarkibiva ishlash tartibi**

<b>Stansiya</b>	<b>Faoliyatturi</b>	<b>Bajaruvchilar</b>
1	O'qituvchi bilan yangi mavzu	3-sinf
2	Mustaqil topshiriqlar	2-sinf
3	Matematik o'yin (kublar, kartochkalar)	1-sinf
4	Raqamli ilova orqali amaliy mashq	Har sinfdan bittadan o'quvchi

Har bir stansiya uchun vaqt: 10-12 daqiqa.

4 ta bosqichda barcha guruhlar barcha stansiyalardan o'tib chiqadi.

#### **Maqsadi:**

- Har bir sinfga vaqt ajratgan holda parallel dars olib borish;
- O'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantirish;
- Darsga qiziqishni oshirish va charchashni kamaytirish.

#### **Qo'llaniladigan vositalar:**

- Kartochkalar (misollar, masalalar);
- Rangli qalamlar, geometric shakllar;
- Planshet yoki telefon (GeoGebra, mathgames.com);
- O'yin elementlari (domino, matematik jumboqlar).

### Amaliy misol: Mavzu – “Qo'shish va ayirish amallari”

Stansiya	Faoliyat	Izoh
1	O'qituvchi bilan: 3-sinfda murakkab masala	Tushuntirish + birgalikda yechish
2	2-sinf: 2 xonalisonlar bilan misollar	Kartochka orqali mustaqil ish
3	1-sinf: qo'shish o'yini (kublar bilan)	Vizual o'yin orqali mustahkamlash
4	Telefon orqali ilovada topshiriq	Quiz yoki animatsiyali misol

#### Afzalliklari:

- O'qituvchi har bir sinf bilan ishlashga ulguradi;
- O'quvchilar zerikmaydi, faol harakatda bo'ladi;
- Mustaqillik, muloqot va mas'uliyat shakllanadi;
- Har bir o'quvchi o'ziga qulay uslubda ishlaydi.

Xulosa, "Stansiyalar asosida aylanishli o'qitish metodi" oz komplektli maktablar uchun juda mos keladi. Bu usul o'qituvchining vaqtini to'g'ri taqsimlash, har bir sinfga yondashish, shuningdek, o'quvchilarning darsga qiziqishini saqlab qolish imkonini beradi. Ayniqsa matematika kabi amaliy fanlarda bu metod o'quv natijalariga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**“Tangram” metodi. Metodning maqsadi.** Oz komplektli maktablarda bir nechta sinf birgalikda dars olgani sababli, o'qituvchiga har bir sinf bilan samarali ishlash qiyinlashadi. Shu sababli, tangram kabi visual va mantiqiy o'yin elementlarini dars jarayoniga jalb qilish, o'quvchilarni mustaqil ishlashga undaydi, har bir sinfga mos topshiriqlar tayyorlash imkonini beradi va o'qituvchining vaqtini to'g'ri taqsimlashga yordam beradi.

**Tangram** — bu yeti xil geometrik shakldan (uchburchaklar, kvadrat va parallelogram) iborat ko'rgazmali vosita. O'quvchilar ushbu shakllarni ishlatgan holda hayvon, uy, odam, yulduz kabi tasvirlarni yasaydilar. Ushbu metod matematik tushunchalarni ko'rgazmali o'rganishga yordam beradi. Shakllarni ajratish, nomlash, solishtirish, simmetriya va figura maydonini aniqlash kabi topshiriqlarni tangram yordamida bajarsa bo'ladi.

**Dars jarayonida qo'llanishi.** Darsni tashkil etishda o'qituvchi har bir sinfga ularning yoshi va bilim darajasiga mos tangram topshiriqlarini beradi. Misol uchun:

1-sinf o'quvchilari shakllarni ajratib, ularni nomlash bilan shug'ullanadi. Ular: “Bu kvadrat, bu uchburchak”, — deb shaklni tanlaydi.

2-sinf o'quvchilari shakllarni o'lchamiga ko'ra solishtiradi, simmetrik joylashgan juftliklarni topadi. Masalan: “Ikki kichik uchburchak bitta katta uchburchakka teng”.

3-sinf o'quvchilari esa shakllarni birlashtirib, murakkab rasm (masalan: uy, odam) yasaydi va nechta shakl ishlatilganini sanaydi, qanday shakllar ishlatilganini tahlil qiladi.

Bu tarzda har bir sinf o'z darajasiga mos topshiriq ustida mustaqil ishlaydi, o'qituvchi esa navbatma-navbat ularning faoliyatini kuzatadi va yordam beradi.

**Darsning ketma-ketligi:** dars avvalida o'qituvchi har bir sinfga topshiriqni tushuntiradiva tangram shakllarini taqdim etadi. So'ngra o'quvchilar 15–20 daqiqa davomida o'z faoliyatlarini mustaqil bajaradilar. Dars oxirida esa o'quvchilar yasagan rasmlarini sinfdoshlarga ko'rsatadilar, foydalanilgan shakllar haqida gapirib beradilar. Bu orqali ularda muloqot va tushuntirish ko'nikmasi ham rivojlanadi.

**Kerakli vositalar:** Tangram to'plami (kartondan yoki qalin qog'ozdan tayyorlangan shakllar), shaklni yasash uchun namunalar, bo'yoq yoki qalamlar, A4 qog'oz va agar imkonbo'lsa, magnitli doska yoki slayd ko'rsatmalar ishlatiladi.

Ushbu metod oz komplektli maktab sharoitida juda qulay, chunki:

- o'quvchilar mustaqil ishlashadi, shu bilan birga faoliyatda bo'lishadi,
- har bir sinf o'ziga mos topshiriq oladi,
- o'qituvchi bir vaqtning o'zida nazorat va yordamni teng taqsimlay oladi,
- matematik tushunchalar vizual va amaliy tarzda o'zlashtiriladi.

Xulosa, tangram asosida o'qitish usuli oz komplektli maktablarda matematika darslarini ko'rgazmali, faol, mustaqil va ijodiy shaklda olib borishga xizmat qiladi. Bu metod orqali o'quvchilarning nafaqat matematik, balki mantiqiy, vizual va kommunikativ ko'nikmalari ham shakllanadi. Shu kabi metodlar orqali darsni tashkil etish dars samaradorligini oshishiga katta hissa qo'shadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jumayev M. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Toshkent–2022.
2. Axmedov M, Abduraxmonov N, Jumayev M “Matematika”, O'qituvchi kitobi, Toshkent–2003.
3. Jumayev M. Matematika o'qitish metodikasi. Toshkent “Turon-Iqbol”–2016.
4. Tadjiyeva Z, Jumayev M. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Toshkent.”Fan va texnologiya”–2005.
5. Levenberg L. “Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi” Toshkent–1985
6. Arxiv.uz
7. Ilmiybaza.uz